loti menejeri lavozimlarida faoliyat olib borishadi. Gid-tarjimonlar sayoyohlik agentliklari, turoperatorlar yoki sayoyohlik idoralar uchun shoshilinch xizmat safarlarini amalga oshiradi, ular u yerda o'z xizmatlarini, ekskursiya yoki madaniy sayohatlarni taklif qiladi. Ularning narxi topshiriqlar va ularning davomiyligiga qarab o'zgaradi. Shuningdek, ular seminarlar yoki konferensiylar tashkil etuvchi kompaniyalarga o'z xizmatlarini taklif qilishi mumkin.

Gid-tarjimonlar birinchi navbatda o'qituvchi bo'lib, ular o'z auditoriyasini o'ziga rom eta oladi. Dinamik va ehtiros bilan ular o'z sayohatlarini manzarali latifalar bilan boyitadi. Bunda tarjimonlardan suhabatlashish qobiliyati talab qilinadi. Ba'zan ular improvizatsiya qilishi va o'zlarini mas'ul bo'lgan sayoholar guruhiha moslashishi kerak. Bundan tashqari, gid-tarjimonlar chet ellik sayoholar bilan muloqot qilish uchun kamida bitta chet tilini bilishi kerak. Chet elliklar tabiatan qiziquvchan va ko'rsatilayotgan joy bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar yoki madaniy an'analarga qiziqadi.

Dilshod ZOKIROV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
o'qituvchisi.

Samarcand davlat chet tillar institutining ingliz tili fakulteti ingliz tili va adabiyoti kafedrasi joriy yilda ilk bor "Sharq madaniyati yozgi lageri" o'n kunlik loyihasini ishlab chiqdi. Ushbu loyiha ta'lim, til va madaniyati qamrab olgan bo'lib, xorijlik mutaxassislar va talabalarini boy o'zbek madaniyati bilan tanishirishni, global aloqalarini rivojlantirish hamda milliy madaniy merosni asrab-avaylashni maqsad qilgan.

"Sharq madaniyati yozgi lageri" loyihasi ishlab chiqildi

Dastur doirasida xorijlik mehmونلار Samarcand shahar va qishloqlarining kundalik hayoti bilan tanishadi. O'zbek tili boshlang'ich til to'garaklarida qatnashib, oлган nazariy bilimlарини mahalliy aholi bilan uchrashuvlarda qo'llaydi.

Loyiha iyul oyining oxirgi o'n kunligida tashkil qilinishi rejalashtiriladi.

**Shahnoza RUSTAMOVA,
Gulhayo BOBONAZAROVA,
Samarcand davlat chet tillar instituti o'qituvchilarini.**



ERTASI XAVF OSTIDA(mi?)

O'zbekistonning eng noyob lanshaftlaridan biri to'qay yoki kayir o'rmonlari hisoblanadi. To'qaylar O'zbekistonning eng yirik daryolari qirg'oqlarida joylashgan toza havo bilan ta'minovchidir. Kayir o'rmonlari daryoni ifloslanishdan saqlab, suvning tozaligini ta'minlaydi hamda tabiatda namlik almashinuvida asosiy rol o'yaydi. Yaqin vaqtlargacha to'qaylar katta maydonlarni egallab kelgan, lekin turli sabablarga ko'ra ularning maydoni taxminan 10 foizga kamayib ketdi.

To'qay o'rmonlari Butunjahon yovvoyi tabiat fondi (WWF) tomonidan jiddiy muhofaza muhitoj ekologik hududlarning "GLOBAL - 200" ro'yxatiga kiritilgan. Zarafshon milliy tabiat bog'i hududida 300 ga yaqin o'simlik turi o'sadi. Balilarning 18, suvda va quruqlikda yashovchilarning 2, sudralib yurulchilarning 10, qushlarning 218, sut emizuvchilarning 26 turi mavjud. Tabiat bog'ida 200 turdan ziyod qushni uchratish mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan o'simliklar, qush va hayvonlarning aksariyati O'zbekiston qizil kitobida ro'yxatga olingan.

Buxoro bug'us (xongul) Markaziy Osiyo uchun endemik hisoblanadi. Bu shuni anglatadi, u faqat Markaziy Osiyo yashaydi va boshqa hech qayerda topilmaydi. Buxoro bug'ulari O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qozog'iston va Afq'onistonda uchraydi. Xongul nisbatan yaqin vaqtarda to'qay o'rmonlarda keng tarqalgen edi, endilikda noyob hayvonlar qatoriga kirdi. Buxoro bug'ulari Xalqaro qizil ro'yxatga tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro konvensiya kiritilgan. Hozir bog'da ochiq tabiatda 100 dan ziyod Buxoro bug'usi yashamoqda, 30 dan ortig'i o'ralgan joyda (valerada) parvarish qilinmoqda.

Ko'rinih turibdi, Milliy tabiat bog'i ertangi avlod ekologik barqarorligini ta'minlashda juda muhim. Hozirdan iqlim o'zgarishi, tabiy boyliklar va suv rusurslarining tobora taqchil bo'lib borayotgani barqaror rivojanishiga kuchli salbiy ta'sir etmoqda. Eko logiya va atrof-muhitni asrash, suv taqchiligining oldini olish bundan buyon ham dolzarb vazifa bo'lib qoladi. Tabiatni asrash borasi da shuncha global muammo bilan kurashilayotgan paytda bog'ga tutash hududdagi Beshkapa, Do'rmon, O'rqli qishloqlaridagi fermer va ayrim fuqarolar muhofaza etiladigan

tabiihududlar to'g'risidagi qonunni buzib, hududga noqonuniy kirib milliy tabiat bog'ining ichki buloq suvlaridan o'zboshimchilik bilan foydalanib kelishmoqda. Hududga tutash Yerteshar, Karapchi, Ashirto'p, Mo'g'ol, Beshkal, Cho'chqatur va yugorida sanagan qishloqlardagi ayrim shaxslar tabiat bog'i balansidagi yer maydonlarni bir necha o'yllardan buyon shaxsiy tomorqaga aylantirib, chorva mollarini boqib, daraxtlarni kesib, yong'in chiqarish hotatlari kuzatilmoqda.

Bog' yerlari yoki hududdagi buloq suvlaridan noqonuniy foydalanishning oldini olish uchun, avvalo, ishchuri tuzib, respublika, viloyat, tuman kadastr mutaxassislar yordamida chegaralarni yana bir bor aniqlab olish lozim. Milliy bog' hududining aholi yashash punktlari bilan chegaralarni to'siqlar bilan o'rab, hududga nazorat kameralar o'rnatish, qonunbuzarlariga nisbatan ma'muriy, jinoi javobgarlikni kuchaytirish maqsadga muvofig bo'lardi.

Yana bir taklif-tajriba sifatida Zarafshon milliy tabiat bog'ini o'zini o'zi molijiyashtirish tizimiga o'tkazish kerak. Bog' ekoturizmdan (sayoyohlarni jaib qilish), yer ijarrachilaridan tushdashigan mablag'lar hisobidan o'zini o'zi ta'minlab, tashkilotning moddiy-teknika bazasini mustahkamlaydi. Dehqonchilik maqsadida fugarolar foydalanib kelayotgan milliy bog' yerlari qonuniy asosida ma'lum bi muddatga manzaralari va ko'p yillik ixota daraxtzorlari barpo etilib, ekoturizm tashkil qilinsa ham ekologiya, ham iqtisodiy tarafidan foydali bo'ladi. Agar bog'ning kelajagiga bugun e'tibor qaratilmasa, yaqin o'n yillarda bog' holati salbiy tomoniga o'zgarib ketishi hech gap emas.

Zarafshon milliy tabiat bog'ining Samarcand shahriga yaqinligi shahar ekologiyasi, ekologik turizm

uchun juda katta ahamiyatga ega. Milliy tabiat bog'i ishchi-xodimlari uchun haftada bir kunni avtomobil sizsiz kun, deb e'lon qilsak. Inson Kuniga 8-10 ming qadam piyoda yursa, yurak faoliyati, qon aylanishi yaxshi bo'ladi. Bog' hududini haqiqiy ekologik toza hudud sifatida saqlab qolish uchun mashinamizni darvozadan tashqarida qoldirilaylik va bog' hududida har qanday avtotransport harakatini cheklaylik. Bog' hududidagi har bir bo'lim nazoratchilari xizmat joylari ham ikki yilda almashtirib turilsa ish samaradorligi ortib, korruption holatlarning oldi olinadi.

Milli tabiat bog'idiagi hayonot bog'i hayonlari turlari yildan yilga kamayib bormoqda. Bog' hududiga kiradigan sayoyohlardan tushdashigan mablag'larini to'g'ri taqsimlab, hayonlar soni va turlari ko'paytirish, bog' hududiga sayoyohlarni olib yuradigan 5-10 kishiligi elektromobillar sotib olish imkoniyatlari bor. Moratori y'lon qilinishiga qaramay Zarafshon daryosidan noruda materiallari qazib olish ishlari davom etmoqda. Zarafshon daryosi sati keyingi 20 yilda 7-8 metragacha tushib ketgan. Ayni vegetatsiya davrida yet osti suvlarining tushib ketishi oqibatida bog' hududidagi qizil kitobga kiritilgan o'simliklari va daraxtlar qurib qolishi kuzatilmoqda. Agar daryo sati yana atropogen omillar ta'sirida 10 metgra tushsa Zarafshon milliy tabiat bog'i ekotizimi umuman yomon ahvolda qoladi.

Shu sababli bugun milliy tabiat bog'idiagi har bir holatni e'tiborga olib, o'simlik va hayonot dunyosini saqlab qolish choralarini ko'rish lozim.

**E.XOLMANOV,
Milliy tabiat bog'i fan va atrof tabiiy muhit monitoringi bo'limi mutaxassis.**

Shartnoma shartlarini bajarmagan quruvchidan

182 million so'm va unga hisoblangan penya undirildi



«Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunga ko'ra, ijrochi ayrim turdag'i ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) qoidalarida yoki shartnoma nomida belgilangan muddatda, hajmada va sifatda ishlarni bajarishi (xizmat ko'rsatishi) shart.

Shuningdek, agar ijrochi shartnomani ijro etishga o'z vaqtida kirishmasa yoki shartnomaning belgilangan muddatda bajarilmasligi ayon bo'lib qolsa, iste'molchi ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnomanada voz kechishga va yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilishga haqil.

O'rganishlar natijasiga ko'ra, ko'p qavatlari uyini xarid qilish uchun tuzilgan shartnoma bekor qilindi. Unga to'langan 182 million 700 ming so'm mablag' qaytarildi. Asosiyi, oldindan to'langan ushbu boshlang'ich badal uchun murojaatchiga 91 million 350 ming so'm miqdorda penya to'lanishi ta'minlandi.

**Jahongir ASHUROV,
boshqarma boshlig'i o'rinnbosari.**

REKLAMA, E'ONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

YIG'ILISHDA QATNASHING!

Samarqand shahridagi "QURILISH MATERIALLARI SAVDO MAJMUASI"
mas'uliyati cheklangan jamiyatiga ta'sischilarining navbatdagi umumiyyat yig'ilishi
2024-yil 26-iyun kuni saat 10:00 da
jamiyatning ma'muriy binosida bo'lib o'tadi.

Kun tartibida:
- jamiyat raisining 2023-yil yakunlari bo'yicha hisoboti;
- jamiyatning 2024-yilgi biznes-rejasini tasdiqlashi;

- boshqa masalalalar.

Yig'ilishga barsha ta'sischilarini taklif etamiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 71-“B”uy.

“QURILISH MATERIALLARI SAVDO MAJMUASI” mas'uliyati cheklangan jamiyatiga.

JAMIYAT MA'MURIYATI.

DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand shahar davlat xizmatlari markazidan 2021-yil 5-aprelda 972783 reestr raqami bilan ro'yxatga olinan "DARXON BETON" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga (qisqartirilgan nomi: "DARXON BETON" MChJ, STIR: 308361487) o'z ustav fondi miqdorini 608 190 000 (olti yuz sakzik million bir yuz to'qson ming) so'mdan 2 000 000 (ikki million) so'mga kamaytirmoqda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand viloyati Oqdaryo tumani, R.Xamraev massivi hududi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Mustafokulova Oydinga (2011-yil 23-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga mur-ojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Xaydarova Xamroga (2011-yil 18-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros

ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga mur-ojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Ibragimova Dilyarom Isayevnaga (2023-yil 17-novabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy, 21-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloyevich notarial idorasida marhum Gulchairov (Gulchexra)ga (2021-yil 15-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius G'afforov Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasida marhum Mamatkulova Farogat Amankulovnaga (2023-yil 22-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning G'afforov Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz

Dunyodagi global o'zgarishlar, turli mafkuralar kurashi, g'oyalar to'qnashuvi hayoti, xalqi, Vatani taqdiriga befarq bo'Imagan har bir fuqarodan o'ta hushyorlik, mulohazakorlik, qat'iy fikr, maqsadli harakatni taqozo etmoqda. Bunday holatga e'tiborsizlik, befarqlik esa nafaqat asrlar davomida bunyod bo'igan beqiyos qadriyatlarning barbob bo'lishi, hatto xalqlarning tili, o'zligi yo'qolib ketishi, tarix sahnasidan tushib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

IJOD – UYG'OQ YURAK MAHSULI

Davlatimiz rahbari 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ana shu jihatlarga alohida to'xtalib, ziyojolar, ijod ahlini yanada uyg'oq, faol bo'lishga chaqirdi.

Yurtboshimiz kengash yig'ilishida iqtisodiyotimizni tiklash, bonyodkorlik ishlardagi yutuqlar tezda bo'y ko'rsatishi, biroq barcha yutuqlarimiz negizida ma'naviyat turishi, tanlagan g'oya va mafkuramizni izchil himoya qilish zarurligi, eng avvalo, qalbalarimizga vatapanvarliq, yurtga sadoqatni singdirishga e'tibor qaratdi. Endilkiida nafaqat iqtisodiyot, balki g'oyaviy-mafkuraviy sohada ham raqobatbardosh bo'lismiz kerakligiga urg'u berildi.

Davlatimiz rahbari Samarqandda Amir Temur bog'ları, Bibixonim majmuasini tiklash, "Buyuk ipak yo'li" muzeyni barpo etish tashabbusini bildirdi. Viloyatmizdagi qadimiy tarix, ilm-fan, hunarmandchilik mo'jizalar, ajoddolaramizdan meroz arxeologik yodgorliklar, muqaddas qadamjavi va obidalarning tiklanishi va mohiyatini yosh avlodga yetkazish bo'yicha berilgan topshirqlarni bajarishga kirishganmiz. Bu boroda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan media-reja ishlab chiqildi.

Samarqand tarixiy markazi YUNE-SKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, 1123 hektar va uning muhofaza zonasasi 1369 hektarni tashkil etadi. Viloyatda 1607 ta moddiy madaniy meroz obyekti ro'yxatga olingan. Ularning 973 tasi arxeologiya, 564 tasi arxitektura ob'ektlari, 36 tasi monumental san'at asarlari va 34 tasi diqqatga sazovor joylardir. Bu obidalar, qadamjolar ulug'lik va zakovat, botirlik va jasorat, yuksak madaniyat temsildir.

Osori-atiqlar, tabarruk qadamjolarining 70 foizi tumanlarda ekanligini hisobga olsak, hali ko'plab ma'rifat maskanlari o'z tadqiqotchilarini kutib turgani, xalq qahramonlari, ulug' allomalarini yuzaga chiqarish, merosini o'rganish zaru-

rati borligini his etamiz.

Yana bir yangilik. 2024-yil 25-mart kuni Vazirlar Mahkamasining "Moddiy-madaniy merozning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unda moddiy merozning ko'chmas mulk obyektlari, turva noturaj joylardagi san'at yodgorliklarini tartibga solish hamda davlat muhofazasiga olish, mozaika, panno va tasviriy san'at asarlari har tomonlama o'rganish, saqlash va ulardan oqilonqa foydalananish, yurtimzining turistik salohiyatini yanada oshirish nazarda tutilgan. Respublikamiz hududidagi 354 ta devoriy surat-mozaika kompozitsiyasidan to'rttasi Samarqand shahrida joylashgan. Bular Rudakiy va Bo'stonsovsha ko'chasi kesishmasidagi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti bosh binosidagi, Mahmud Koshg'ariy ko'chasidagi XIX-XX asrga mansub 67-68-uylar va Beruniy ko'chasidagi 144-uydagisi mozaika kompozitsiyalari madaniy qiymatga ega bo'lgan monumental san'at yodgorliklari sifatida davlat kadastriga kiritilib, milliy ro'yxatga olinadi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidan so'ng xalqni ruhlantiradigan, yosh avlodning ilm-fanda mo'jizalar yaratish, qat'iyat va jasoratga undaydigan, ma'naviy tarbiyasiga ta'sir etadigan badiiy yuksak kitoblar bitishga burchli ekanimizni yana bir bor his etdik.

Davr bilan hamnafas bo'Imagan, uyg'oq yurak bilan yashamagan kishi jamiyatdan ortda qoladi. Shu bois ijod ahli doimo sergak bo'lishi, xalq ichida, yoshlar davrasida, harbiylar yonida o'z so'zini aytishi kerak. Yangi O'zbekistonni birlgilasha qurish, bilimli va qat'iyatli, vatanparvar yoshtarning voyaga yetishida ijodimiz bilan kamarbasta bo'lish yurtga farzandlik burchimiz, qalb da'vatidir.

Toshpo'lat TUGALOV,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
viloyat bo'limi
rahbari.

Davr bilan hamnafas bo'Imagan, uyg'oq yurak bilan yashamagan kishi jamiyatdan ortda qoladi. Shu bois ijod ahli doimo sergak bo'lishi, xalq ichida, yoshlar davrasida, harbiylar yonida o'z so'zini aytishi kerak. Yangi O'zbekistonni birlgilasha qurish, bilimli va qat'iyatli, vatanparvar yoshtarning voyaga yetishida ijodimiz bilan kamarbasta bo'lish yurtga farzandlik burchimiz, qalb da'vatidir.

Toshpo'lat TUGALOV,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
viloyat bo'limi
rahbari.

Soha fidoyilar “Axborot–kutubxona a'lochisi” bo'ldi

Jizzax shahrida “Central Asia – 2024”: Fan, ta'lim, madaniyat va biznesda Internet va axborot-kutubxona resurslari” XVII xalqaro konferensiysi bo'lib o'tdi. Unda Turkiya, Rossiya, Belarus, Qozog'iston va boshqa davlatlardan soha vakillari ishtirotida axborot-kutubxona xizmati samaradorligini oshirish uchun jahon axborot resurslari bo'yicha chiqishlari, mahorat darsi hamda sohaga doir keng qamrovli mavzularda shu'ba yig'ilishlari o'tkazildi.

Xususan, raqamlı O'zbekiston mühitida zamonaviy bibliografiya: an'anaviy yondashuvlar va bibliografiyaning yangi formatlari, arxivlar faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirishning ilg'or usullari, mahalla va xususiy kutubxonalar faoliyatining yo'liga qo'yilishi mavzulari yuzasidan hududiylar axborot-kutubxona markazlari rahbariyati, mutaxassislari tajribasi, ko'nikmalarini taqdimat qilishdi.

-Anjumanda kutubxonalarda kitob yodgorliklari-

ni saqlash va ulardan foydalinish shartlari, ularning asl qiyofasini saqlash bo'yicha chiqish qildimi, - deydi viloyat axborot-kutubxona markazi rahbari o'rinosari Nargiza Saidmurodova. - Aytish lozimki, kitob yodgorliklaridan foydalanshda, jahon amaliyotida bo'lgani kabi foydalansh imkoniyatidan ko'ra xavfsizlikka ustuvor ahamiyat beriladi. Bu nashr etilgan asar matniga, uning moddiy o'ziga xosligidan qat'i nazar, murojaat qiluvchi

IQTIDORGA E'TIBOR SADRIDDIN AYNIYNING BOSH G'OYASI EDI



Hamma zamonlarda ham ta'limgarbiya eng muhim muammolardan biri bo'lib kelgan. O'z davrining ilg'or ziyyolilari, hur tafakkur sohiblari ushu masalada bosh qotirishgan, uning yechimi va hal etish yo'llarini ko'rsatib berishgan, o'zlar ham bu sohaning faol ma'rifatparvarlaridan bo'lischgan.

O'tgan asrning boshlarida Vatan ozodligi yo'lida tarix maydoniga chiqqan Turkiston jadidchilik harakatining vakillari ilgari surgan bosh g'oya xalqni ilmi qilish edi. Ularning ko'pchiligi Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'onada vodiysida faoliyat olib borgan. Yangi usul maktablari ochish, bu maktab o'quvchilari uchun o'quv dasturlari va darsliklar yaratish ularning asosiy yumushlari bo'lgan.

Ana shu harakatning yirik vakillari- dan biri – avval Buxoroda, keyinchalik Samarqandda yashagan va ijod qilgan o'zbek-tojik adabiyotining buyuk namoyandas ustozi Sadriddin Ayniy edi.

Sadriddin Ayniyyning hayoti va ijodi, hayotiy xulosalar, u kishi tufayli yuzaga kelgan ustoz-shogirdlik an'analari o'z davri uchun chinakam ma'noda ibrat namunasi bo'lgan va vorisiylik hamon davom etib kelmoqda.

Allomaniy ko'p qirrali faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanib turadigan, ibrat bo'lishga arziyidigan fazilatlardan biri yosh avlodga, iste'dodli yoshlarga g'amxo'rlik edi. Mana shu fikrning isboti sifatida bir dalil keltirish mumkin.

Samarqand adabiyotshunoslik maktabining asoschisi, akademik Vohid Abdullayev 1941-yilda "Alisher Navoiyning Samarqanddagi hayoti va faoliyati" mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilganida bu ishga Ayniy domla yuksak baho bergan. No'mon Rahimjonovning "O'zbekiston adabiyotshunoslari" kitobida keltirilishi, shunday taqriz yozgan ekanlar: "O'rtoq Abdullayev baland talantli, ziyorak, mehnatkash, boshlagan ishi ustida zerikmay, vaqtini qizg'anmay ishlaydigani ilmiy ishchi. Uning bu siatlari salmoqdar qilgan narsa olimming fors-tojikcha va eski o'zbekcha manbalarini tushunib o'qib, ulardan yetarli darajada foydalana olishidadir".

Ushbu qisqa va sermazmun mulo-hazada V.Abdullayev shaxsiga niyoyatda xolisona baho berilganligini anglash mumkin. Taqrizda yosh tadqiqotching fitratida bo'lgan barcha fazilatlar aniq ko'rsatilgan. U V.Abdullayevning ham iste'dodli, ham ziyorak, ham mehnatkash, ham boshlagan ishi ustida qunt bilan ishlaydigani ilmiy tadqiqotchi ekanligiga guvohlik beradi. Uning sabablarini esa olimming eski o'zbek va fors-tojik tilida yaratilgan manbalar ustida qunt bilan ishlashi, ularning mazmunini chuqur anglab yetishi va ulardan mahorat bilan foydalansh hamda ilmiy xulosalar chiqara olishida deb biladi.

Ayniy domla keyinchalik V.Abdullayevga "O'zbek adabiyoti tarixi" kitobining yozilishiida ham o'z maslahatlarini berib turgan.

Ustozi Ayniy

domlaning V.Abdullayevga bildirilgan yuksak ishonchi to'liq ma'noda o'zini oqlaganiga biz keyingi avlod vakillari guvohmiz. Ustoz-shogird an'analaring izchil davom etayotgani esa bundan-dan da quvonalaridir. Nafaqat Samarqand davlat universiteti, balki respublika mumtoz adabiyot tarixi va zamonaviy adabiyotshunosligining yirik vakillari bo'lgan akademik Botirkhon Valixo'jayev, professorlar Rahim Muqimov, Nuridin Shukurov, Rahmonqul Ozribekov, Shavkat Shukurov, Rahim Vohidov, Dilorom Salohiy, dotsent Qobiljon Tohirov va boshqa o'nlab tadqiqotchilar ustoz Sadriddin Ayniy va Vohid Abdullaevning ishtiroti bilan o'sebil qolmagan.

Sadriddin Ayniyyining "savolu javob" usulida yozgan she'ri mazmunan boyligi, o'quvchiga ijobja ta'sir qilishi bilan e'tiborni tortadi:

– Dunyoning eng yaxshi xonasi qaysidir?

– Maktabdir!

– Eng yaxshi bolalar?

– Maktabga boradigan bolalardan qaysilar yaxshiroqdir?

– Hech qachon maktabdan qolmaydiganlaridir.

– Ulardan qaysilar yaxshiroqdir?

– Sheriklari daftaru qalamini ularning ruxsatisiz olmaydiganlaridir.

Sadriddin Ayniyyining "Maktab qanday bo'lishi kerak?", "Maktab qoidasiga doir hikoyat", "Aqlli odam va yuksak baxt sohibi", "Badbaxt odam" va boshqa adabiy lavhalari sarlavhalarida

bolalar tarbiyasida maktabning ustunik qilishiga ahamiyat berdi. O'zi ham ilm istagida qishloqlardan Buxoroga kelgan iste'dodli bolalarga ko'maklashdi.

XIX asr boshlarida jadid faollar tashabbusi bilan Samarqand, Toshkent kabi shaharlarda o'qish-o'qtish yanagi usulda olib boriladigan maktablar paydo bo'la boshlagan edi. 1907-yilda Buxoroda yangi usul maktabi ochiladi, ammo o'zbek tilini biladigan o'qituvchi bo'Imaganligidan darslar tatar tilida olib borilgan. S.Ayniy tatar tili mualliminining roziyoti bilan shu maktabda olti oy bepul tarjimonlik qilgan. Keyinchalik o'zi ham Mirzo Abdulvohid degan kishi bilan birgalikda kambag'al bolalar uchun bepul maktab ochgan.

Samarqandda yashagan davrlarida ham alloma bu xayrli ishlarini davom ettirdi. Domlaning kelajakda iqtidorli adaibiyotchi bo'lishga munosib yoshlarga ko'rsatgan ustozlilik e'tibori to'g'risida taniqli yozuvchi Daxodon Nuriy o'zingin "Olis yulduzlar shu'lesi" kitobida batafsil to'xtalgan.

Ko'rindiki, ulug' yozuvchi o'zingin bosh maslagi va e'tiqodidan kelib chiqib, inson ma'naviyatining shakliligi va yuksalishida ma'rifatning muhimligini hech vaqt unutmagan. Bu hol uning ustoz-shogirdlik an'analarga sodiqligida, tilga bo'lgan munosabatida aniq bilinib turadi.

Biz bugun yangicha va erkin fikrlash, milliy o'zligimizni anglash tuyg'usini tobora teranrog his qilib borayotgan ekanmiz, Sadriddin Ayniy kabi ulug' ajodolarimiz ma'naviyati bizga hamisha ibrat bo'lishi shubhasiz.

Saida ATAVULLAYEVA,
Sharof Rashidov
nomidagi
Samarqand davlat
universiteti
dotsenti.

tadqiqotchilarga xizmat ko'rsatishda asl nusxalarga bo'lgan talablarini bajarish, ularni nusxalar bilan almashtirishga o'ta nozik yondashuvni talab qiladi.

Xalqaro konferensiya doirasidagi shu'ba yig'ilishlarida eng faol ma'ruzachilarga Milliy kutubxona tomonidan sertifikatlar topshirildi. Shuningdek, bir guruh faol xodimlar "Axborot-kutubxona a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. E'tiborli, ular orasida samarqandlik soha fidoyilarini, viloyat axborot-kutubxona markazi rahbari o'rinnbosari Nargiza Saidmurodova, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi viloyat bolalar kutubxonasi rahbari Yusuf Muhammadiyev, Nurobod tuman axborot-kutubxona markazi xodimi Dilshoda Utamova ham bor.

Mohira QAHHOROVA,
Nurobod tumani axborot-kutubxona markazi
xizmat rahbari.



Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00.

Navbatchi muharrir:
G'.HASANOV.

Navbatchi:
G.MO'MINOVA.

Sahifalovchi:
B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X



Sotuvda
narxi kelishilgan holda

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks